

## **ELEKTRON TIJORATDA BITIMLARNI TUZISH TARTIBI VA ASOSLARI**

**Maxamatumarova Mohigul**

Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi yo‘nalishi magistranti

E-mail: [mohigultdyu@gmail.com](mailto:mohigultdyu@gmail.com)

***Annotatsiya:** ushbu maqola elektron tijoratda bitimlarni tuzishning huquqiy tartibi va asoslarini tahlil qiladi. Unda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida elektron bitimlarning o‘ziga xos xususiyatlari, oferta va aksept mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada xorijiy davlatlarning tajribasi (UNCITRAL, Yevropa Ittifoqi, AQSh va Osiyo mamlakatlari misolida) o‘rganilib, texnologik neytrallik, diskriminatsiya qilmaslik va tomonlar avtonomiyasi kabi asosiy tamoyillar yoritiladi. Maqolada elektron bitimlarni tuzishda yuzaga keladigan dolzarb muammolar hamda O‘zbekistonning huquqni qo‘llash amaliyoti tahlil qilingan. Yakunda elektron tijorat sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar berilgan bo‘lib, ular sohani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:** elektron tijorat, elektron bitimlar, huquqiy tartibga solish, fuqarolik huquqi, oferta, aksept, elektron imzo, kiberxavfsizlik, sud amaliyoti, qonunchilikni takomillashtirish.*

## **ПОРЯДОК И ОСНОВАНИЯ ЗАКЛЮЧЕНИЯ СДЕЛОК В ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛЕ**

**Махаматумарова Мохигуль**

Магистрант, Бизнес-право, Ташкентский государственный юридический университет

E-mail: [mohigultdyu@gmail.com](mailto:mohigultdyu@gmail.com)

***Аннотация:** в статье анализируются правовой порядок и основы заключения сделок в сфере электронной коммерции. В статье рассматриваются особенности электронных сделок, механизмы оферты и*

*акцепта, основанные на законодательстве Республики Узбекистан. В статье также рассматривается опыт зарубежных стран (на примере ЮНСИТРАЛ, Евросоюза, США, стран Азии) и выделяются такие ключевые принципы, как технологическая нейтральность, недискриминация и автономия сторон. В статье анализируются актуальные проблемы, возникающие при заключении электронных сделок, и правоприменительная практика Узбекистана. В заключение были высказаны конкретные предложения и рекомендации по совершенствованию законодательства в сфере электронной коммерции, что послужит дальнейшему развитию отрасли.*

**Ключевые слова:** электронная коммерция, электронные сделки, правовое регулирование, гражданское право, оферта, акцепт, электронная подпись, кибербезопасность, судебная практика, совершенствование законодательства.

### **PROCEDURE AND BASIS OF CONCLUSION OF TRANSACTIONS IN ELECTRONIC COMMERCE**

**Makhamatumarova Mohigul**

Master's student of Business Law, Tashkent State University of Law

E-mail: [mohigultdyu@gmail.com](mailto:mohigultdyu@gmail.com)

**Abstract:** *this article analyzes the legal procedure and foundations of concluding transactions in electronic commerce. It examines the specific features of electronic transactions, offer and acceptance mechanisms based on the legislation of the Republic of Uzbekistan. The article also studies the experience of foreign countries (on the example of UNCITRAL, the European Union, the USA and Asian countries) and highlights such basic principles as technological neutrality, non-discrimination and autonomy of the parties. The article analyzes the current problems arising in concluding electronic transactions and the law*

*enforcement practice of Uzbekistan. Finally, specific proposals and recommendations are given to improve the legislation in the field of electronic commerce, which will serve the further development of the industry.*

**Keywords:** *e-commerce, electronic transactions, legal regulation, civil law, offer, acceptance, electronic signature, cybersecurity, case law, legislative improvement.*

**Kirish.** An'anaviy iqtisodiyotdan raqamli iqtisodiyotga o'tish jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichida elektron tijoratning biznes muhitida asta-sekin asosiy o'rinlarni egallashiga yordam bermoqda. Hozirgi kunda ilgari tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga asoslangan jamiyatimiz ko'plab munosabatlar boshqacha kechadigan raqamli iqtisodiyotga o'tib bormoqda. Ushbu o'zgarishlarning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bu barcha ijtimoiy jarayonlarning tobora ortib borayotgan raqamlashtirilishi hisoblanadi. Biroq, ishtirokchilar o'rtasida aniq huquqiy asoslar natijasida shakllangan ishonch bo'lmasa, yangi iqtisodiyot o'z salohiyatini to'liq ochib bera olmaydi va jamiyatimiz uchun foydalar yangi texnologiyalar taqdim etishi mumkin bo'lgan imkoniyatlardan tashqarida qoladi<sup>1</sup>. Shu bilan birga, ishonch faqat yangi texnik yechimlarni joriy etishga asoslanmasligi, balki raqamli davrda tovar almashinuvi uchun huquqiy muhitni yaxshilashga ham tayanilishi kerak.

Zamonaviy sharoitlar ayniqsa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi shartnomalar tuzish uchun keng ko'lamli imkoniyatlarni taqdim etadi. Axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari virtual makonida tijorat bitimlari tuzishning iqtisodiy ahamiyati va texnologik yangiligi elektron hujjatlar almashinuvi orqali xo'jalik shartnomalarini tuzish bilan bog'liq

<sup>1</sup> Gisler, M., Stanoevska-Slabeva, K., & Greunz, M. (2000, June). Legal Aspects of Electronic Contracts. In ISDO. SJIF: 5.051

yuridik muammolarni o‘rganishning dolzarbligini belgilaydi<sup>2</sup>. Elektron tijoratni bitimlar amalga oshirishning alohida shakli sifatida ko‘rib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, ularning tuzilishi va bajarilishi axborot texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, bitimlarning huquqiy tabiati o‘zgaraydi va ular munosabatlar turiga ko‘ra (sotib olish-sotish, yetkazib berish, ish va xizmatlar bajarish, ijara va boshqalar) tegishli huquqiy normalar bilan tartibga solinishi kerak.

**Asosiy qism.** Elektron tijoratda bitimlar tuzishda qonunchilik normalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bunda Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlarining o‘rni katta. Fuqarolik kodeksiga ko‘ra, “Bitim tuzish uchun ikki tarafning (ikki taraflama bitim) yoki uch yoxud undan ko‘p tarafning (ko‘p taraflama bitim) kelishilgan erklari bayon etilishi zarur bo‘lsa, bunday bitimlar ikki taraflama yoki ko‘p taraflama deb hisoblanadi”. Shunga ko‘ra, elektron tijorat bitimlari ham bitimning ko‘p taraflama turi sirasiga kiradi. Chunki elektron tijorat oldi-sotdi shartnomasi bilan bir xil huquqiy asosga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Elektron tijorat bitimlarining tuzilishi esa Fuqarolik kodeksida keltirilgani kabi bajariladi. FK ning 364-moddasida ko‘rsatilganidek, agar taraflar o‘rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan shunday hollarda talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo‘lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi<sup>3</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi “Elektron tijorat to‘g‘risida” O‘RQ-792-son Qonunidan maqsad elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ta’kidlash joizki, ushbu qonunning amal qilishi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlari to‘g‘risidagi

<sup>2</sup> Бурило Ю.П. Проблемы заключения хозяйственных договоров путем обмена электронными документами в условиях развития электронной коммерции в Украине // Проблемы экономики и юридической практики. – 2013. – №3. – С.43.

<sup>3</sup> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.04.2025-y., 03/25/1060/0373-son. <https://lex.uz/docs/-111189>.

qonunchilikka muvofiq, amalga oshiriladigan davlat xaridlari hamda birja faoliyati uchun litsenziyalarga ega bo'lgan birjalarda tuziladigan kelishuvlarga nisbatan tatbiq etilmaydi<sup>4</sup>. Bu, elektron tijoratning keng qamrovli xususiyatini, biroq ayrim sohalarda maxsus huquqiy tartibga solishning zarurligini ko'rsatadi.

Professor I.Rustambekovning fikricha, qonun hujjatlariga asosan, davlat ro'yxatidan o'tkazilishi talab qilinadigan shartnomalar, xususan ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlar yoki patentdan o'zga shaxs foydasiga voz kechish shartnomalari, notarial tasdiqlanishni talab qiluvchi bitimlar, masalan renta shartnomasi, odatdagi tartibda vasiyatnoma tuzish, shuningdek, o'zining alohida tuzilish tartibiga ega bo'lgan birja bitimlari internet tarmog'i orqali elektron tijorat doirasida elektron shartnoma shaklida tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ularning elektron shartnoma shaklida tuzilishi shartnomaning haqiqiy emasligiga olib kelishi mumkin<sup>5</sup>. Bu cheklovlar elektron bitimlarning huquqiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ayrim turdagi bitimlar uchun an'anaviy yozma va notarial shaklning afzalligini ko'rsatadi.

Internetda tuziladigan shartnomalarga nisbatan qonuniy nizolarni hal qilishda shartnoma tuzish tartibiga qo'llaniladigan huquqni aniqlash uchun ko'pincha "joy" tushunchasi (shartnoma tuzilgan joy, joylashgan joy yoki yashash joyi) ishlatiladi. Biroq, bu tushuncha internet-shartnomalarda qiyinchilik tug'diradi, chunki oferent, odatda, shartnoma qayerda tuzilishini bilmaydi<sup>6</sup>.

<sup>4</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.04.2025-y., 03/25/1057/0351-son. <https://lex.uz/docs/-6213382>.

<sup>5</sup> Rustambekov I.R. Internet tarmog'ida fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish; yurid.fan. dok. diss. avtoref. \_ T.: TDYU, 2017. – 61-b.

<sup>6</sup> В вопросе выбора юрисдикции в странах англо-саксонской правовой системы уже сформировалась определенная судебная практика. См.: дела: McDonough vs. Fallon McElligott, Benson Restaurant Corp. vs. King, Compuserve, Inc. vs. Patterson, Minnesota vs. Granite Gate Resorts, Inc, Digital Equipment Corp. vs. Altavista Technology, Inc., Maritz, Inc. vs. CyberGold, Inc. <http://www.russianlaw.net/law/doc/a102.htm>.

Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 185-son qaroriga muvofiq Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalari tasdiqlangan<sup>7</sup>. Bu qoidalar elektron tijorat subyektlari uchun huquqiy amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi va bitimlarni tuzishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy noaniqliklarni kamaytiradi.

Elektron tijoratda shartnoma tuzish jarayoni oferta va aksept asosida amalga oshiriladi. Shartnoma, agar unda boshqacha shart ko‘rsatilmagan bo‘lsa, oferta jo‘natgan taraf akseptni qabul qilgan paytdan boshlab tuzilgan deb hisoblanadi. Oferta elektron hujjat shaklida taqdim etiladi va unda bitta shaxs, aniq shaxslar guruhi yoki noma’lum shaxslar doirasiga shartnoma tuzish taklifi kiritiladi. Bu hujjat shartnomaning barcha muhim shartlarini, shu jumladan qonuniy talablarga mos keladigan shartlarni o‘z ichiga olishi yoki ularni o‘z ichiga olgan boshqa elektron hujjatlar va xabarlarga havola qilishi kerak. Oferta belgilangan muddat davomida amal qiladi va agar unda boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, aksept muddati tugaguniga qadar bekor qilinmaydi. Ofertani chaqirib olish uchun oluvchiga elektron hujjat yoki xabar shaklida, bekor qilish sabablari ko‘rsatilgan bildirishnoma yuboriladi.

Elektron tijoratda shartnoma tuzish bir necha usulda amalga oshirilishi mumkin: u elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron hujjat sifatida, elektron tijorat ishtirokchisining roziligini aks ettiruvchi elektron xabar shaklida yoki ofertada ko‘rsatilgan shartlarni bajarish orqali akseptni amalga oshirish yo‘li bilan tuziladi. Aksept elektron hujjat yoki xabar sifatida taqdim etilishi mumkin yoki oferta shartlarini to‘liq bajarish orqali amalga oshiriladi, bu esa shartnoma

<sup>7</sup> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.08.2024-y., 09/24/507/0619-son. <https://lex.uz/docs/-2973939>.  
SJIF: 5.051

tuzishga to'liq va so'zsiz rozilikni bildiradi. Ta'kidlash joizki, akseptda oferta shartlari o'zgartirilmasligi lozim; agar shartlar o'zgartirilgan javob yuborilsa, bu aksept emas, yangi oferta sifatida qaraladi. Oferta yoki aksept, agar taraflar o'zaro kelishuvda boshqacha shart ko'rsatilmagan bo'lsa, axborot tizimi tomonidan qabul qilinganligi tasdiqlanganda olingan deb hisoblanadi. Ammo faqat oferta qabul qilinganligi haqidagi bildirishnoma shartnomani ijro etish uchun asos bo'la olmaydi. Agar boshqacha kelishuv bo'lmasa oferta va aksept jo'natuvchi tomonidan o'zgarishsiz, asl shaklida yuborilishi, oluvchi tomonida esa shartnoma muddati tugaguniga qadar o'z holicha saqlanishi kerak. Axborot tizimlaridan foydalanilgan holda tuzilgan shartnoma yozma shaklda tuzilgan va taraflar tomonidan imzolangan, shu jumladan taraflarning muhrlari bilan tasdiqlangan shartnomaga tenglashtiriladi.

**Xorijiy tajriba tahlili.** Elektron tijorat bitimlarini huquqiy tartibga solishda ko'plab davlatlar xalqaro normalarga tayanadi va o'z qonunchiligini shu asosda rivojlantiradi. Xususan, xalqaro savdo huquqi doirasida Birlashgan Millatlar tashkiloti komissiyasi (UNCITRAL) namunaviy qonunlari muhim ahamiyat kasb etadi<sup>8</sup>. UNCITRALning "Elektron tijorat bo'yicha namunaviy qonuni" (1996) va "Elektron imzo bo'yicha namunaviy qonuni" (2001) ko'plab davlatlar, jumladan, Singapur, Avstraliya, Kanada, AQShning ayrim shtatlari va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tomonidan elektron bitimlarga oid qonunchilikni yaratishda asos bo'lib xizmat qilgan.

Yevropa Ittifoqi axborot jamiyati xizmatlarini huquqiy tartibga solishni rivojlantirishda eng katta muvaffaqiyatga erishdi. Yevropa Ittifoqida elektron tijorat sohasida fundamental normativ hujjatlar ishlab chiqish bo'yicha norma

<sup>8</sup> Ro'zinazarov.Sh, Askarov.J, Tursunov.A Elektron tijoratni huquqiy tartibga solish. – T., TDYU, 2021.– B.123.  
SJIF: 5.051

ijodkorligi ishlari 1996-yilda boshlangan edi. Keng muhokamalardan soʻng Yevropa komissiyasi 1997-yil aprel oyida “Yevropada E-tijorat tashabbusi”ni ishga tushirdi. 2000-yil iyun oyida “axborot jamiyati xizmatlarining muayyan huquqiy jihatlari va, xususan, ichki bozorda elektron tijorat toʻgʻrisida koʻrsatma” (Elektron tijorat Direktivasi) qabul qilindi. E-tijorat direktivasi YEI ichki bozorini axborot xizmatlariga nisbatan rivojlantirishni koʻzda tutadi, ular masofadan turib mijozning shaxsiy talabiga binoan, odatda haq evaziga, elektron maʼlumotlarni uzatish va saqlash orqali koʻrsatiladigan xizmatlar deb belgilangan.

AQShda Yagona elektron bitimlar toʻgʻrisidagi qonun<sup>9</sup> (Uniform Electronic Transactions Act - UETA) va Global va milliy savdoda elektron imzolar toʻgʻrisidagi qonun (Electronic Signatures in Global and National Commerce Act - E-SIGN Act) elektron imzolarning va elektron bitimlarning huquqiy kuchini tan oladi<sup>10</sup>. UETA qabul qilingan aksariyat shtatlarda elektron bitimlar qogʻozdagi bitimlar kabi qonuniy kuchga ega. Bu qonunlar, agar tomonlar elektron vositalardan foydalanishga rozi boʻlsa, elektron bitimlar rad etilmasligini taʼminlaydi. Buyuk Britaniyada ham elektron bitimlarni tartibga soluvchi bir qator qonunlar mavjud boʻlib, ular orasida Elektron aloqalar qonuni (Electronic Communications Act 2000) muhim oʻrin tutadi. Bu qonun elektron imzolar va hujjatlarning yuridik kuchini tan oladi<sup>11</sup>. Singapur oʻzining Elektron bitimlar qonuni (Electronic Transactions Act) bilan elektron savdo va bitimlarni faol

<sup>9</sup>[https://www.uaipit.com/uploads/legislacion/files/0000004550\\_UNIFORM%20ELECTRONIC%20TRANSACTION%20ACT.pdf](https://www.uaipit.com/uploads/legislacion/files/0000004550_UNIFORM%20ELECTRONIC%20TRANSACTION%20ACT.pdf).

<sup>10</sup><https://www.fdic.gov/resources/supervision-and-examinations/consumer-compliance-examination-manual/documents/10/x-3-1.pdf>.

<sup>11</sup><https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2000/7/contents>.



qo‘llab-quvvatlaydi<sup>12</sup>. Hindistonda esa Axborot texnologiyalari qonuni (Information Technology Act, 2000) elektron bitimlarga huquqiy maqom beradi<sup>13</sup>.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, elektron bitimlarning huquqiy tartibga solinishi, asosan, quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Diskriminatsiya qilmaslik tamoyili – elektron hujjatlar va imzolar qog‘ozdagi hujjatlar va qo‘l imzolariga nisbatan kamsitilmasligi kerak.

Texnologik neytrallik – qonunlar ma’lum bir texnologiyaga bog‘lanmasligi, balki turli xil texnologiyalar yordamida amalga oshirilgan bitimlarga nisbatan qo‘llanilishi kerak. Texnologik neytrallik shuni anglatadiki: qonunlar bitta muayyan texnologik usulga bog‘lanib qolmasligi kerak. Ya’ni, qonun faqat “ERI”ni tan olib, boshqa yangi paydo bo‘lgan imzolash usullarini inkor qilmasligi lozim. Buning o‘rniga, qonun shartnomani imzolashning natijasiga e’tibor qaratishi kerak: imzo shaxsning o‘z roziligini va shartnoma shartlariga qo‘shilishini tasdiqlaydimi? Agar tasdiqlasa, qaysi texnologiya bilan imzolanganidan qat’i nazar, u qonuniy kuchga ega bo‘lishi kerak.

Tomonlarning avtonomiyasi – tomonlar elektron bitimlarni tuzishda o‘zaro kelishuv asosida erkinlikka ega bo‘lishi kerak.

Bu tamoyillar elektron tijoratning dinamik rivojlanishiga huquqiy asos yaratadi va innovatsiyalarni cheklamaydi.

**Xulosa.** Elektron tijoratda bitimlarni tuzish tartibi zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning huquqiy asoslari milliy va xalqaro qonunchilikda o‘z aksini topmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida elektron tijorat bitimlarining o‘ziga xos xususiyatlarini, shu jumladan oferta va aksept mexanizmlarini tushunish va ularga rioya qilish yuridik

<sup>12</sup> <https://sso.agc.gov.sg/act/eta2010>.

<sup>13</sup> [https://www.indiacode.nic.in/bitstream/123456789/13116/1/it\\_act\\_2000\\_updated.pdf](https://www.indiacode.nic.in/bitstream/123456789/13116/1/it_act_2000_updated.pdf).

xavfsizlikni ta'minlash uchun juda muhimdir. Shu bilan birga, ayrim turdagi bitimlar uchun an'anaviy yozma shaklning ustunligi saqlanib qolgan holda, elektron bitimlarning huquqiy kuchini yanada mustahkamlash dolzarb vazifadir. Kelajakda elektron tijorat sohasidagi qonunchilikni xalqaro amaliyot bilan uyg'unlashtirish va elektron bitimlarni tuzishga oid qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni keltiramiz:

“Joy” tushunchasini aniqlashtirish va xalqaro me'yorlarga moslashtirish. Internetda tuziladigan shartnomalarda shartnomaning “tuzilgan joyi”ni aniqlash masalasi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Bu borada xalqaro tajriba o'rganilib, “Elektron tijorat to'g'risida”gi Qonunga qo'shimcha norma kiritish lozim. Jumladan, “tuzilgan joy” tushunchasini raqamli muhit shartlariga moslashtirish, masalan, ofertani qabul qiluvchi shaxsning yashash yoki joylashgan joyi, yoki tomonlar kelishuvi bilan aniqlash mumkin.

Elektron imzo turlarini kengaytirish va o'zaro tan olish mexanizmlarini soddalashtirish. O'zbekistonda elektron raqamli imzo (ERI) bilan bir qatorda, chet elda keng qo'llaniladigan ilg'or elektron imzolar (masalan, Yevropa Ittifoqidagi “Advanced Electronic Signature” va “Qualified Electronic Signature”) kabi imzo turlarini tan olish bo'yicha huquqiy asos yaratish lozim. Bu xalqaro elektron tijorat operatsiyalarini osonlashtiradi va mahalliy tadbirkorlarning global bozorda ishtirokini kuchaytiradi. Shu bilan birga, xalqaro miqyosda elektron imzolarni o'zaro tan olish bo'yicha kelishuvlarga erishish muhimdir.

Elektron bitimlar bo'yicha sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqish va qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar berish. Elektron tijorat munosabatlari va elektron bitimlar sonining jadal o'sib borishi,

ulardan kelib chiqadigan nizolar sonining ham ortishiga olib kelmoqda. Bu esa sud tizimi oldiga elektron bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini to‘g‘ri va bir xil tarzda qo‘llash vazifasini qo‘yadi. Shuni inobatga olgan holda, elektron bitimlar bo‘yicha sud amaliyotini muntazam ravishda umumlashtirish materiallarini ko‘rib chiqish va qonunchilikni qo‘llash masalalari bo‘yicha tushuntirishlar berish dolzarb hisoblanadi.

Ushbu taklif va tavsiyalar elektron tijorat sohasidagi qonunchilikning zamon talablariga mos ravishda rivojlanishiga va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ro‘zinazarov.Sh, Askarov.J, Tursunov.A Elektron tijoratni huquqiy tartibga solish. – T., TDYU, 2021.– B.123
2. Rustambekov I.R. Internet tarmog‘ida fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish; yurid.fan. dok. diss. avtoref. \_ T.: TDYU, 2017. – 61 b.
3. Gisler, M., Stanoevska-Slabeva, K., & Greunz, M. (2000, June). Legal Aspects of Electronic Contracts. In ISDO.
4. Бурило Ю.П. Проблемы заключения хозяйственных договоров путем обмена электронными документами в условиях развития электронной коммерции в Украине // Проблемы экономики и юридической практики. – 2013. – №3. – С.43.
5. В вопросе выбора юрисдикции в странах англо-саксонской правовой системы уже сформировалась определенная судебная практика. См.: дела: McDonough vs. Fallon McElligott, Benson Restaurant Corp. vs. King,

Compuserve, Inc. vs. Patterson, Minnesota vs. Granite Gate Resorts, Inc, Digital Equipment Corp. vs. Altavista Technology, Inc., Maritz, Inc. vs. CyberGold, Inc.  
<http://www.russianlaw.net/law/doc/a102.htm>.

6. “Measuring Electronic Business Definitions, Underlying Concepts, and Measurements Plans”. Government of the United States of America. 13.10.1999.

7. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.04.2025-y., 03/25/1060/0373-son. <https://lex.uz/docs/-111189>.

8. “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonun. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2025-y., 03/25/1057/0351-son. <https://lex.uz/docs/-6213382>.

9. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 185-son qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.08.2024-y., 09/24/507/0619-son. <https://lex.uz/docs/-2973939>.

10. Uniform Electronic Transactions Act.  
[https://www.uaipit.com/uploads/legislacion/files/0000004550\\_UNIFORM%20ELECTRONIC%20TRANSACTIONS%20ACT.pdf](https://www.uaipit.com/uploads/legislacion/files/0000004550_UNIFORM%20ELECTRONIC%20TRANSACTIONS%20ACT.pdf).

11. Electronic Communications Act 2000.  
<https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2000/7/contents>.